


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.Q.Xasanova</b>	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
<b>N.M.O'ranova, M.A.Qodirjonova</b>	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
<b>D.M.Begmatova</b>	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalilaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari .....	14
<b>Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva</b>	
The role of media competence in the work of a teacher .....	18
<b>D.G.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlari .....	22
<b>F.I.Sharipova</b>	
Tibbiyot oliygochlarda ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari .....	26
<b>M.A.Tuxtabayev</b>	
Janubiy Koreya ta'lif tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
<b>S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubabbov</b>	
Umumiylar mifik tablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
<b>S.R.Uraimov S.G.G'ofurov</b>	
Umumiylar mifik tablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish .....	41
<b>S.B.Qodirov</b>	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari .....	46
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
<b>D.A.Abdusamiyev</b>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning mifik muhitiga moslashishi.....	55
<b>A.X.Gafforov</b>	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lif resurslarini qo'llash .....	59
<b>F.V.Xalilov</b>	
Ta'lifni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
<b>A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva</b>	
Analogik muhitda kinematik hodisalarining simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
<b>S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
<b>M.E.Yulchiev</b>	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
<b>M.O.Ismoilova</b>	
O'quvchilarida kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari.....	81
<b>U.I.Obidjanov</b>	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari .....	85
<b>A.M.Tishabaev</b>	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



UO'K: 796.015.3:796.01:355.44

**1991-2005-YILLARDA O'ZBEKISTONDA MILLIY VA OMMAVIY SPORT TURLARINING RIVOJLANISHI****РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И МАССОВЫХ ВИДОВ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ В 1991-2005 ГГ****DEVELOPMENT OF NATIONAL AND MASS SPORTS IN UZBEKISTAN IN 1991-2005**

**Tishabaev Alisher Maxamadjonovich**   
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada 1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, unutilib borayotgan xalq turmush tarzi, kasb-hunar, mehnat xarakteriga ko'ra, dehqonchilik, chorvachilik xo'jaligi, xalq hunarmandchiligi, bayram va to'y-tomoshalar bilan bog'liq qator milliy o'yinlar haqidagi fikr-mulohazalar tadqiqot doirasiga tortilgan.

**Аннотация**

В этой статье представлены сведения о развитии национальных и массовых видов спорта в Узбекистане в 1991-2005 гг. на основе научной, исторической литературы и источников. Также в рамках исследования были втянуты отзывы о ряде национальных игр, связанных с забытым народным укладом жизни, профессиями, трудовым характером, земледелием, животноводством, народными промыслами, праздниками и свадебно-зрелищными мероприятиями.

**Abstract**

This article covers information about the development of national and mass sports in Uzbekistan in 1991-2005 on the basis of scientific, historical literature and sources. Also, according to the forgetful folk lifestyle, profession, labor character, feedback on a number of National Games related to agriculture, livestock farming, folk crafts, celebrations and weddings were drawn into the scope of research.

**Kalit so'zlar:** sport, milliy, o'yin, kurash, bellashuv, bahs, ommaviy, sovrin, o'yingoh.

**Ключевые слова:** спорт, национальный, игра, борьба, соревнование, спор, публичный, приз, стадион.

**Key words:** sport, national, game, wrestling, competition, debate, public, prize, stadium.

**KIRISH**

Bugungi kunda yurtimiz kelajagi hisoblangan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas'uliyatlari qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Istiqlolning yaqin o'tgan yillari mobaynida O'zbekiston Respublikasida aholi barcha qatlamlarini milliy va ommaviy sportga qiziqishi, qatnashishini yanada orttirishga ayricha e'tibor berildi. An'anaviy ravishda yoshlar, mehnat faoliyati bilan band bo'lgan aholi qatlami, madaniyat, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o'ttasida "Kamolot kubogi", milliy o'yinlar bo'yicha "Alpomish" sport musobaqalari, yoshlarning "Shunqorlar" harbiy sport musobaqalari, ayollarning "To'maris" sport festivali, nogironlarning doimiy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Jasorat-iroda-g'alaba" bellashuvlari, ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlari o'ttasida turli mazmundagi sport o'yinlarining muntazam ravishda o'tkazilishi barcha joylarda yo'lga qo'yilib, mazkur jarayonlar ayni paytda ham tobora ommalashib bormoqda. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori, 2018-yil 5-martdag'i "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni, 2020-yil 4 fevraldag'i "Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4583-sonli qarori, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada

takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmonlari mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda [1.].

Ayni vazifalardan kelib chiqib, mamlakatda sport turlarini ommalashtirish, sportchlarning yuqori natijalari tarixi, buguni va ertasi masalalarini o'rganish, e'tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Maqolada 1991-2005-yillardning davriy chegarasida O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi, istiqlolning dastlabki davridanoq respublikaning tarixiy shaharlarida milliy kurash, boshqa ommaviy sport turlari bo'yicha xalqaro musobaqalar tashkil qilinishi davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Ushbu davr o'rganilganda bir necha tarixchi-olimlar tadqiqot ishlari ham ko'rib chiqildi. Hususan, Tarixchi-olim S.V.Yo'ldoshev ilmiy tadqiqotida uzlusiz ta'lif-tarbiya jarayonida xalq o'yinlarining tarixiy hamda ilmiy pedagogik asoslari, Farg'ona vodiysida xalq o'yinlarining shakllanish tarixi va ularning etnik, tabiiy-geografik, xo'jalik-madaniy omillari hamda u bilan bog'liq etnik-madaniy an'analar, urf-odatlar, xalq o'yinlarining bugungi kundagi o'zgarishi, tarbiyaviy ahamiyati atroficha bayon qilingan [2.].

Tadqiqotchilardan T.S.Uzmanxodjaev, Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov hamda Sh.A.Pulatovlarning izlanishlarida o'zbek xalq milliy va harakatli o'yinlari, ularning vujudga kelishi va tarixi, sport turlariga xos harakatli o'yinlar, istiqlol yillarda xalq harakatli o'yinlarining shakllanishi va ularni jismoniy tarbiya va sport amaliyotida qo'llash imkoniyatlari aks ettirilgan [3. ].

X.T.Ismoilova, M.B.Artikova, A.M. Negmatova, O.K.Komilov va G.A.Ruziyevalarning izlanishida mahallalarda milliy o'yinlarni rivojlanishi, ommalashib borayotgan harakatli o'yinlarga aholining tobora qiziqib borganligi, kelajak avlodning jismonan tayyorgarligining tobora o'sishiga xizmat qilganligi, xalq o'yinlari orqali yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik va to'g'rilik kabi fazilatlar yildan-yilga shakllanib borganligi tahlil qilmingan [4.].

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarни o'rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o'rganish va ob'ektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Mamlakatda qator sport turlari, xalq milliy hamda harakatli o'yinlarini tiklash va ularni ommalashtirishga hukumat tomonidan alohida urg'u berildi. Zero, milliy qadriyatlar tarkibidagi o'zbek millatining eng sevimli ommaviy-ma'naviy tadbirlaridan alohida o'r'in olib kelgan. "Navro'z", hayit, to'ylar va turli xil an'anaviy marosimlar, udumlar tarixan kurashsiz, ko'pkarisiz (uloq) va poygasiz o'tmagan. Bugungi kunda unutilib borayotgan qator milliy o'yinlarni kengroq targ'ib etish yo'li bilan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, sog'lom turmush tarziga targ'ib etish, ularning intellektual salohiyati bilan birgalikda jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishishlarini ta'minlash asosiy vazifalardan bira hisoblanadi. Chunki, milliy o'yinlarning har birida komillik, mardlik, jasurlik, rostgo'ylik va zukkolik talab etiladi. Asriy an'analarga ega bo'lgan xalq milliy o'yinlarini bir necha guruhlarga, ya'ni kurash, ot o'yinlari (ko'pkari-uloq, poyga (yayov), qiz quvmoq, otdan ag'darish, chovg'on va boshq.), dorboz (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar), tosh (gir) ko'tarish, arqon tortishish, bilak kuchini sinash, harakatli o'yinlar (qulqoq cho'zma, eshak mindi, yelkada kurash, xo'rozlar jangi, chillik, poda to'p va boshq.) yanada shakllandi. Bu o'yinlarning deyarli barchasi hozirgi davrdagi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanilib kelinmoqda. O'zbek xalq milliy o'yinlarining anchagina qismi bevosita harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni chaqqon, epchil, ziyrak, topqir, kuchli va sog'lom bo'lib o'sishlariga imkon beradi. Xalq o'yinlari yangi sog'lom avlodni shakllantirishda ham o'ta muhim o'r'in tutgani ularni muntazam asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydalanishni talab qiladi [3.122.].

Ma'lumki, o'zbeklarga xos bo'lgan xalq o'yinlari asosan mahalliy xususiyat kasb etib, u qator turkum hamda ma'lum guruhlardan iborat. Bu kabi o'yinlar hamda musobaqalar oddiy xalq orasida muhim xarakter kasb etib keldi. Shu bilan bir qatorda, mazkur tarqalgan o'yinlarga qatnashuvchilarni alohida inobatga olgan holda, jumladan, ular bolalar va o'smirlar, yoshlar, qizlar, ayollar hamda erkaklar o'yinlari turlariga ajratish o'rinni. Bu mazmundagi bellashuvlar ifodalanish jihatlariga monand ravishda so'zli, qo'shiqli, raqsli hamda harakatli bahslardan iborat. Qator bahslarda o'yinlarni birinchi navbatda bolalar va o'smirlar hamda katta yoshlilarga mo'ljallangan

## PEDAGOGIKA

musobaqalarga ajratish maqsadga muvofiq. Aytish o'rinligi, yoshi katta kishilarga oid bo'lgan ko'pkari (uloq) va shavqi baland o'yinlaridan qo'chqor, it, xo'roz urushtirish, oshiq o'yini kabilari mansub bo'lib, ular tobora ommalashib bordi [2.35.].

1991-yilning 25-aprelida Jizzax viloyati Forish tumanida ilk bor xalq milliy o'yinlari respublika musobaqasi tashkil etildi [8.40.]. Bu kabi o'yinlar har yili aprel va may oylarida yana shu tumanda o'tkazildi. Forish xalq o'yinlarining maqsadi unutilayotgan xalq o'yinlarini tiklash, targ'ib qilishdan iborat edi. Unda tumandagi xo'jaliklar va 13 ta mакtab jamoalari yuzlab xalq o'yinlarini qayta tiklab, xalq oldida namoyish qildi. Jumladan, "tap-tosh", "anapay", "tikki", "otib qochar", "qotdi", "ot arava", "oppon-soppon", "ot o'yin", "qidirib top", "janbil", "duv bozor o'yin", "chekimtosh", "oshiq", "danak", "yong'oq o'yin", "botmon-botmon", "buta solay", "xatlamoqchi", "podsho-vazir", "momo-momo", "xo'roz urushtirish", "xo'roz-xo'roz", "bekki tosh", "bog'liq ko'z", "tepa kurash", "piyoda va eshak", "piyoda ko'pkari", "eshak ko'pkari", "cho'p ot", "Pirmat eshak", "sajmin", "pir etdi", "taqir-tuqir qayrog'och", "oltin darvoza", "to'g'nog'ich", "allam-bulam", "do'ppi yashir", "uchpoy", "chavandoz", "yaqqol", "qo'riqchi", "doiradan urib chiq", "osmon-osmon", "chunka shuvoq", "sakka", "o'rda", "mindi", "podachi", "istandir", "asir olish", "qochar top", "tovus", "dahanaki jang" kabi noyob o'yinlar qayta tiklandi [4.40.].

O'zbekiston Respublikasi, qolaversa, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Farg'ona vodiysidagi xalq o'yinlari eng avvalo mahalliy xarakter kasb etadi. Vodiyning o'zbek, qirg'iz, tojik millatiga mansub aholisi orasida o'yinlarning vujudga kelishi, xo'jalik an'analari bilan uzziy bog'langanligi ma'lum. Shuningdek, o'yinlar xalq tur mush tarzi, kasb-hunar, mehnat xarakteriga ko'ra, dehqonchilik, chorvachilik xo'jaligi, xalq hunarmandchiligi, bayram va to'y-tomoshalar bilan bog'liq o'yinlarga bo'linadi. Ayni paytda tabiiy-geografik joylashuviga va to'rt fasl bahor, yoz, kuz, qishki o'yinlar alohida guruhlarni tashkil etadi [5.58.]. Masalan, dehqonchilikka bog'liq holda kelib chiqqan "Kadi (oshqovoq) pishdimi?", "Sholg'om tortish", "Sholg'om-shakar", "Moshova", "Oq sholimi-ko'k sholi?", "Xurmacha bog", "Ok terakmi-ko'k terak", "Xola-xola", "Dasta", "Yong'oq o'yini", "Botir bola", "Bo'g'irsoq", "Mehmon-mehmon", "Danak yashirish", "Qo'g'irchoq", "Topil-topil", "Quloq cho'zma", "Kurash" kabi ko'pdan ko'p nomlarda o'z ifodasini topadi [2.40.].

Farg'ona viloyati Oltiariq tumanining tojik millatiga mansub aholi yashaydigan Bo'rboliq qishlog'ida kattalar va bolalar orasida o'ynaladigan o'ttiz besh tur o'yinlar aniqlandi. Bunday o'yinlar faqat tojik millatiga mansub aholi orasida o'ynaladigan, tojikcha iboralar bilan nomlanadigan "parbozi" (par o'yini), "qushakbozi" (qum o'yini), "chimpo'shak" (chim kiydi), "qumkafanak" (qumda sudralish musobaqasi), "dandon ba qoshiq" (tishda qoshiq ushlab turish) kabi o'yinlar ajralib turadi. Bunday o'yinlarning turlari Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida, Bag'dod, Rishton, Quva, Besariq tumanlari, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on, Uychi, Koson, Chust tumanlari, Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati Yangi Novqat, Eski Novqat, Uchqo'rg'on aholi shaharchasi, Batkent viloyati Qadamjoy, Haydarkon aholi punkti kabilarda istiqomat qiluvchi o'zbek, tojik, qirg'iz aholisi o'rtasida ham keng tarqalgan [2.83.].

1994-1996-yillarda o'tkazilgan mazkur o'yinlar "Xalq milliy o'yinlari respublika olimpiadasi" nomini oldi. 1996-yilning may oyida Forish tumanı markazi Yangiqishloq yaqinidagi Qizilqir sayilgohida sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bag'ishlangan II respublika "Xalq o'yinlari" olimpiadasi bo'lib o'tdi [9.6.]. Unda 11 ta jamoa 9 tur hamda umumiyy hisobda g'oliblikni qo'lga kiritish uchun maydonga chiqdi. Respublika olimpiadasida Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona jamoalari peshqadamlit qildi. Shu yilning 6 may kuni qator anjumanlar Jizzax shahrida boshlandi, 7 mayda esa Forish tumanida xalqning ko'plab sport turlariga doir muhim bayrami bo'lib o'tdi [8.42.].

Mustaqillik yillarida mamlakatda ko'plab sport turlari qatori kurash ham keng ommalashib, izchil rivojlandi. Bir paytlar to'y, bayram va sayllarning tor doirasidan chiqolmagan kurash bugun butun dunyoga tanildi. Yer kurrasining barcha qit'alariga yoyilib, yuzdan ziyod mamlakatlarda ommalashdi. Jumladan, "kurash", "yonbosh", "chala", "halol" "to'xta" kabi o'zbek so'zlari dunyoda jaranglamoqda [2.88.]. Kurash milliy sporti asosan qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linib, uning qadimiy turlaridan biri - farg'onacha belbog'li kurash hisoblanadi. Kurashning bu turi Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlarda, Toshkent vohasida keng tarqaldi. Azal-azaldan farg'onacha kurash bo'yicha sayillarda, to'ylarda va boshqa yig'inlarda musobaqalar tashkil etildi.

Shu boisdan ham mamlakatda milliy kurashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, 1992-yilden e'tiboran har yili an'anaviy tarzda tarixiy maqomga ega bo'lgan - Termiz

hamda Shahrisabz shaharlariда o'zbek milliy kurashi bo'yicha xalqaro ahamiyatga molik musobaqa tashkil etish va o'tkazish an'anaga aylandi. Shu yilning sentyabr oyida Xivada milliy kurash bo'yicha mashhur xivalik polvon va shoir Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan birinchi Xalqaro turnir bo'lib o'tdi, unda Xorazm viloyatining Xonqa tumanidan sport ustasi D.Qalandarov turnirning mutlaq championi bo'ldi [6.431.]. Bir oz vaqt o'tgani holda kurash sport turining yillar davomida unutilib borgan ilmiy-nazariy jihatlari qaytadan tiklanib, mazkur sport turiga taalluqli maxsus qoidalar, me'yorlar ishlab chiqildi hamda ko'plab xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi. Xususan, Amir Temur, Hakim at-Termizi, Jaloliddin Manguberdi va boshqa ulug' allomalar xotirasiga bag'ishlab milliy kurash Xalqaro turnirlar, Prezident sovrini uchun yirik musobaqalar tashkil etildi hamda mazkur xalqaro musobaqalarning muntazam ravishda o'tkazilishi an'anaga aylandi. 1998-yil 6-sentyabr Toshkentda jahoning 28 ta davlat vakillari ishtirokida xalqaro "Kurash" assotsiatsiyasining ta'sis Kongressida "Kurash" xalqaro assotsiatsiyasi tuzildi [10.16.].

Mustaqillik bayrami kuni, Navro'z va hosil bayramlarida kurash musobaqalari o'tkazish asosiy mazmunga aylandi. Shu asosda 1999-2004-yillarda jahoning 40 dan ortiq mamlakatlari, Yerevan kabi shaharlarda va AQSh, Yevropa hamda Avstraliya qit'alaring ko'plab shaharlarda o'zbek milliy kurashi bo'yicha Xalqaro uchrashuvlar o'tkazildi [7.304.]. Bularning natijalari esa kurash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiyasi tuzilishiga zamin yarattdi. Deyarli barcha qit'alarda kurash federatsiyalari tashkil etildi, ularning soni 70 dan ortdi. Bunday faoliyatlarning natijasi o'laroq kurash bo'yicha jahon championatlarini o'tkazishga sababchi bo'ldi. Birinchi jahon championati 1999-yili Toshkentda, 2000-yil Antaliya (Turkiya), 2001-yil Vengriya va 2002-yilda Yerevan (Armaniston)da bo'lib o'tdi [11.165.].

2002-yil oktyabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zoligiga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e'tirof etildi. Ta'kidlash o'rinni, o'zbek milliy kurashini Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish Xalqaro kurash assotsiatsiyasining eng muhim strategik maqsadiga aylandi. Kurash bo'yicha jahon championatlarining 2003, 2004, 2005-yillarda o'tkazilishi, eng avvalo O'zbekistonning istiqlolni barqarorligini hamda milliy qadriyatlarning mustahkam va haddan ziyod boyligini jahonga namoyish qildi. Kamol Murodov, Akobir Qurbonov, Toshtemir Muhammadiyevlar birinchi champion bo'ldilar. Keyingi yillarda Abdulla Tangriev kabi jahon championlari kashf etildi. 2005-yilning noyabr oyida Toshkentda kurash bo'yicha V jahon championati bo'lib o'tdi [12.234.]. "Belbog'li kurash" ham mamlakat championatlari va xalqaro turnirlarning markaziga aylandi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan deyarli barcha ta'lim dargohlarida, ko'pgina ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, aholi istiqomat joylarida ommaviy sport turlari bo'yicha sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yildi. Xususan, xalqaro sport turi safidan muhim o'rni egallagan o'zbek milliy kurashi tez fursatlarda tobora ommalashib bordi. Bu sport turiga doir qator ixtisoslashgan maktablar va kollejlarda kurashga doir bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga qatnashuvchilar hamda qiziquvchilar soni yildan-yilga o'sib bordi. Ayni paytda milliy kurash turlari bo'yicha barcha toifadagi maxsus sport maktablari ochildi va doimiy faoliyati o'rnatildi.

Mamlakatda istiqlol yillarida aholini barcha qatlamlarini ommaviy tarzda qamrab oladigan sport turlarini yanada rivojlantirishgaayricha e'tibor qaratildi. Buning natijasida o'zbek xalq milliy o'yinlari ham yil sayin rivojlanib bordi. Ta'kidlash joizki, istiqlolning dastlabki davridanoq respublikaning tarixiy shaharlarda milliy kurash, boshqa ommaviy sport turlari bo'yicha xalqaro musobaqalar tashkil qilish va ularni o'tkazish an'anaviy tus oldi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- <https://lex.uz/docs/-3226019>,<https://lex.uz/docs/-3578121>,<https://lex.uz/docs/-4725016?ONDATE=05.02.2020>,
- Yo'ldoshev S.V. Uzluksiz ta'llim-tarbiya jarayonida xalq o'yinlarining tarixiy, ilmiy pedagogik asoslari.-Farg'ona, 2020. – 35,40, 83, 88-bet,
- Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o'yinlar.-Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – 122-bet.
- Ismoilova X.T., Artikova M.B., Negmatova A.M., Komilov O.K., Ruziyeva G.A. Mahallalarda milliy o'yinlar.-Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 42-bet.
- Yo'ldoshev S. Xalq o'yinlari – ma'naviy tafakkur omili // Ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali.-Toshkent, 2018.-№3. –B.58.

PEDAGOGIKA

---

6. Tyurikov V., Shog'ulomov R. Istiqlol yilnomasi. O'zbekiston Respublikasi: odamlar, sanalar, voqealar (1991-2001).-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.-5.431.
7. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.-B.304.
8. O'zMA, M.1-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 40,42-varaqlar.
9. O'zMA, M.38-fond, 5-ro'yxat, 23-yig'majild, 6-varaq.
10. O'zMA, M.38-fond, 4-ro'yxat, 22-yig'majild, 16-varaq
11. O'zMA, M.38-fond, 3-ro'yxat, 112-yig'majild, 165-varaq.
12. O'zMA, M.38-fond, 5-ro'yxat, 11-yig'majild, 234-varaq.